

DARIY TILIDA IQTISODIY TERMINLAR VA ULARNING YASALISH MODELLARI

Xolida Zikrillaevna ALIMOVA

TDSHU Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

xolidaxon66@mail.ru

Robiyaxon Ibrohimxo'ja qizi Sirojiddinova

TDSHU Lingvistika (dariy) mutaxassisligi 2-kurs magistranti
robiyasirojiddinova22@gmail.com

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilishi, ayniqsa, madaniy-gumanitar va savdo-iqtisodiy aloqalarning jadal sur'atda rivojlanayotgani dariy tili iqtisodiyot sohasiga oid terminologik leksikaning ortishiga olib kelmoqda. Maqolada dariy tili iqtisodiy terminlarining tarkibi, yasalishi va qo'llanilishi asiyat misollari orqali o'rganilgan. Dariy tilidagi internet saytlari, shuningdek, matbuot materiallaridan olingan iqtisodiyotga oid 100 ta termin o'z va o'zlashgan qatlam hamda yasallish usullariga ko'ra tahlil qilingan.

Ma'lumki, dariy tili iqtisodiyot terminologiyasi, boshqa tillar kabi, asosan, ikki manba: dariy tilining ichki imkoniyatlari va chet til unsurlari (so'z va so'z birikmalari) asosida rivojlanib va boyib borgan. Bu manbaning birinchisi, asli tub leksik qatlam, fors-dariy tillarida qadimda iste'molda bo'lgan yoki iqtisod sohasida yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan lug'aviy birliklar hamda ular asosida ona tilining so'z yasovchi vositalari bilan yangidan hosil qilingan terminlar hisoblanadi. Ikkinchisi, o'zga tillar, aniqrog'i, arab va yevropa tillaridan o'zlashgan qatlamd.

Maqolada dariy tili iqtisodiy terminlarining yasallishida yarimaffiksatiya usulining mahsuldorligi, bunda fe'liy yarimaffikslarning ismiy yarimaffikslardan dominantligi aniqlangan. Qo'shma terminlar yasallishida kopulyativ qo'shma so'zlarning ustunligi (fe'l + interfiks + fe'l modeli) belgilangan. Iqtisodiy terminlar tarkibida arab va forscha o'zlashmalarining, asosan, an'anaviy oldi-sotdi shakllarini ifodalashi, yevropa tillaridan o'zlashmalar esa «moliya» tushunchasi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar turini modellashtirgani aniqlangan.

Kalit so'zlar. *Afg'oniston, dariy tili, iqtisodga oid leksika, iqtisodiy terminlar, moliya, sodda termin, qo'shma termin, birikma termin, o'zlashma termin.*

ABSTRACT

Recent years have seen a new phase in the cooperation between Uzbekistan and Afghanistan, particularly in the areas of cultural, humanitarian, trade and economic relations. This has contributed to the active expansion of economic terminology in the Dari language. The present article examines the composition, word formation methods and usage characteristics of economic terms in the Dari language, based on original examples.

A thorough investigation was undertaken to ascertain the provenance (native and borrowed elements) and the methods of formation of 100 economic terms selected from online resources and printed publications in the Dari language.

As is well established, the economic terminology of Dari, akin to that of other languages, was formed and enriched principally from two sources: the internal resources of the language itself and elements borrowed from other languages (words and phrases). The initial source encompasses the original lexical layer, comprising lexical units that were utilised in ancient times in the Persian and Dari languages, or that were derived from these languages employing their own word-formation mechanisms to articulate novel economic concepts. The second is the borrowed layer, represented by Arabic and European languages.

The article demonstrates the efficacy of semi-affixation as a method of forming economic terms, while establishing the predominance of verbal semi-affixes over nominal ones. In the formation of complex terms, copulative compound words predominate (the model 'verb + interfix + verb'). It has been established that Arabic and Persian borrowings in the composition of terms primarily reflect traditional forms of commercial transactions, while borrowings from European languages model the type of economic relations associated with the concept of 'finance'.

Keywords: *Afghanistan, Dari language, economic vocabulary, economic terms, finance, simple term, complex term, term-phrase, borrowed term.*

АННОТАЦИЯ

В последние годы сотрудничество между Узбекистаном и Афганистаном вышло на новый этап, особенно в сферах культурно-гуманитарных и торгово-экономических связей, что способствует активному расширению терминологической лексики в области экономики на языке дари. В статье на основе оригинальных примеров рассматриваются состав, способы словообразования и особенности употребления экономических терминов языка дари.

Проведён анализ 100 экономических терминов, отобранных из интернет-ресурсов и печатных изданий на языке дари, с целью выявления их

происхождения (собственные и заимствованные элементы), а также способов их образования.

Как известно, экономическая терминология языка дари, как и других языков, формировалась и обогащалась в основном за счёт двух источников: внутренних ресурсов самого языка и элементов, заимствованных из других языков (слов и словосочетаний). Первый источник включает исконный лексический пласт — лексические единицы, использовавшиеся в древности в персидском и дари языках, либо созданные на их основе с применением собственных словообразовательных средств для выражения новых экономических понятий. Второй — это заимствованный слой, представленный арабскими и европейскими языками.

В статье выявлена высокая продуктивность полуаффиксации как способа образования экономических терминов, при этом установлено доминирование глагольных полуаффиксов над именными. При образовании сложных терминов преобладают копулятивные сложные слова (модель «глагол + интерфикс + глагол»). Установлено, что арабские и персидские заимствования в составе терминов в основном отражают традиционные формы торговых операций, тогда как заимствования из европейских языков моделируют тип экономических отношений, связанных с понятием «финансы».

Ключевые слова: Афганистан, язык дари, экономическая лексика, экономические термины, финансы, простой термин, сложный термин, термин-словосочетание, заимствованный термин.

KIRISH

Ma'lumki, tilshunoslikning eng dolzarb, goyatda murakkab, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohasi terminologiyadir. Terminshunoslik dunyo tilshunosligida jadal rivojlanayotgan soha sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilishi, ayniqsa, madaniy-gumanitar va savdo-iqtisodiy aloqalarning jadal sur'atda rivojlanayotgani dariy tili iqtisodiyot sohasiga oid terminologik leksikaning ortishiga olib kelmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, dariy tili iqtisodiyot sohasidagi terminologik sath bo'yicha ham tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Iqtisodiyot sohasidagi leksikani o'rganishning dolzarbligini ko'rsatish, bugungi kunda jadallik bilan o'zgarib borayotgan globallashuv jarayonida leksik qatlam va tarkibining o'zgarayotgani, dariy tilida mavjud bo'lmagan tushunchalarni g'arb leksikasi bilan to'ldirilayotgani maqola mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dariy tilshunosligida terminologiya mavzusida muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. O'tgan asrning 60-70-yillarida X.Hoshimbekovning «Актуальные вопросы терминологии языка дари (проблема усвоения заимствований)» [9] va X.U.Uralovning «Техническая терминология современного языка дари и таджикского языка (сопоставительный анализ)» [7] nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Keyinchalik X.U.Uralovning «Научно-техническая терминология современного языка дари» [8] monografiyasi nashr qilindi. Ko'rinadiki, ilmiy ishlar qariyb yarim asr muqaddam yozilgan.

Bugungi kunga kelib Afg'oniston Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'rnatilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy-ma'rifiy aloqalari negizida o'ziga xos yangi davrni boshidan kechirmoqda. Afg'on xalqi eng so'nggi texnika va texnologiyalar bilan oshno bo'lmoqda, ularni kundalik hayotda qo'llash imkoniyati yuzaga kelmoqda. Albatta, bu jarayonlar, o'z navbatida, tilda o'z lisoniy ifodasini topmoqda.

Dariy tili iqtisodiyot terminologiyasi, boshqa tillar kabi, asosan, ikki manba: dariy tilining ichki imkoniyatlari va chet til unsurlari (so'z va so'z birikmalari) asosida rivojlanib va boyib borgan. Bu manbaning birinchisi, asli tub leksik qatlam, fors-dariy tillarida qadimda iste'molda bo'lgan yoki iqtisod sohasida yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan lug'aviy birliklar hamda ular asosida ona tilining so'z yasovchi vositalari bilan yangidan hosil qilingan terminlar hisoblanadi. Ikkinchisi, o'zga tillar, aniqrog'i, arab va yevropa tillaridan o'zlashgan qatlamdir.

Maqolada dariy tilidagi internet saytlari, shuningdek, matbuot materiallarida iqtisodiyotga oid materiallardan 100 ta termin tahlilga tortildi. To'plangan materiallarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular sistem-struktur va komponent tahlil metodlari asosida o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dariy tili iqtisodiy terminlarini tuzilishiga ko'ra uchga ajratiladi: 1) sodda, 2) qo'shma va 3) birikma terminlar. Quyida mavzu doirasida sodda va qo'shma terminlar o'rganildi.

Hozirgi dariy tilida sodda iqtisodiy terminlarni quyidagi tub o'z va o'zlashgan terminlar tashkil qiladi:

fors-dariy: پاداش *pâdâš* 'bonus', سرمایه *sarmâya* 'kapital', کرایه *kerâya* 'ijara';

arabcha o'zlashmalar: باج *bâj* 'solliq', سهم *sahm* 'aksiya', تجارت *tejârat* 'tijoratchilik', اقتصاد *eqtesâd* 'iqtisod' va b.

Dariy tilida arab tilidan o‘zlashgan صادرات *sâderât* ‘eksport’, ‘eksport mollar’, واردات *wâredât* ‘import’ terminlari ishlatiladi. Bular arabcha -at ko‘plik qo‘shimchasi bilan ko‘rsatilgan ma’nolarda o‘zlashgan. Qiziq jihati, dariycha so‘zlardan arabcha -at ko‘plik qo‘shimchasi yordamida yangi so‘z yasalishi ham kuzatiladi: کار ‘ish’ – کارات ‘harakat’, ‘harbiy operatsiya’ [2, 52]. Shuningdek, صادر so‘zi dariy tilida mustaqil ishlatilmay, lug‘atda qo‘shma fe’lning ot qismi vazifasida qayd qilinadi: ا صادر کردن a) ‘chiqarmoq’ (buyruq va sh.k), ‘nashr qilmoq’; b) ‘eksport qilmoq’ [3, 493].

Misollar:

چین و اتحادیه اروپا توافق کردند که طرحی را به هدف کنترل صادرات ایجاد می کنند
[www.farsi.ru, 2.9.2014].

Čin wa Ettehâdiya-ye Orupâ tawâfeq kardand ke tarhi râ ba hadaf-e kontrol-e sâderât ijâd mêkonand.

‘Xitoy va Yevropa Ittifoqi eksport nazorati rejasini kelishib oldi’.

واردات *wâredât* “import” (وارد *wâred* “kirituvchi”) degan ma’nosi bo‘lib, iqtisodiyotda “import” ma’nosida qo‘llaniladi [11, 1042]. Tovarlar, xizmatlar va kapitalni sotish maqsadida chet el bozorlariga chiqarish. Eksportning quyidagi ko‘rinishlari mavjud: 1. Tovar eksporti. 2. Xizmatlar eksporti. 3. Kapital eksporti [5, 122].

Yevropa tillaridan o‘zlashmalar: ليلام *lilâm* ‘auksion’, ليزينگ *lizing* ‘lizing’, بانکنوت *bânknôt* – ‘banknot’ va boshqalar.

Misollar:

قرغزستان كرايه اى پايگاهى نظامى «ماناس» را بلند كرد [www.farsi.ru 26.02.2007].

Qeryezestân kerâyai pâygâhi-ye nezâmi “mânâs” râ boland kard.

‘Qirg‘iziston “Manas” harbiy bazasi ijarasini ko‘tardi’.

کرایه *kerâya* ‘ijara’ termini bu yerda “ijara haqi”, ya’ni ijara sharoitida (sharti bilan) taqdim etilgan mulk uchun to‘lov turi ma’nosini ifodalamoqda [5, 149].

پس از تحریم‌های امریکا و اتحادیه اروپا علیه هوانوردی، در روسیه ثبت می‌کنند و او انتظار دارد
برخی دیگر به شرکت‌های لیزینگ بازگردانده شوند [<https://www.toloneews.com/fa/afghanistan>].

Pas az tahrinhâ-ye Amrikâ wa Ettehâdiya-ye Orupâ alayh-e hawânawardi, dar Rusiya sabt mêkonand wa ô entezâr dârad barxê digar ba šerkathâ-ye lizing bâzgardânda šawad.

‘AQSh va Yevropa Ittifoqining aviatsiyaga qarshi sanksiyalaridan so‘ng ular Rossiyada ro‘yxatdan o‘tmoqda va u boshqalar lizing kompaniyalariga qaytarilishini kutmoqda’.

Mazkur gapdagi ليزينگ *lizing* ‘lizing’ termini ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ingliz tilida **leasing** so‘zi *ijara*, *ijara shartnomasi* degan ma’nolarni anglatadi. Asosiy

ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlari) va boshqa tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanish uchun qarzni asta-sekin uzish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berish yoki olish [<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Lizing>]. Dariy tilida لیزینگ *lizing* 'lizing' so'zining quyidagi ma'nosi o'zlashgan: moliya-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalar tomonidan mashina, asbob-uskuna va shunga o'xshash tovarlarni uzoq muddatli ijaraga olishni anglatadi [5, 246]. Misollardan ko'rinadiki, iqtisodiy terminlar qo'llanilishida har bir tushunchaga va u ifodalayotgan ma'noga chegara qo'yilmoqda. Bu holat esa termin o'rtasidagi nozik jihatlarni tafovutiga e'tibor qaratilayotganidan dalolat bermoqda.

در افغانستان بانک مبلغ ۱۴ میلیون دالر امریکایی را طی داوطلبی به روز دوشنبه بطور لیلام بفروش می رساند [www.farsi.ru, 10.11.2016].

Dar afyânestân bânk moblay çahârdah mêlyun dolar-e amrikâi râ tay-ye dâwtalabi ba ruz-e dušanba batowr-e lilâm baforus mê rasânad.

'Afg'onistonda bank dushanba kuni auksion orqali 14 million AQSh dollarini sotadi'.

به نوشته این رسانه، افزایش تجارت با کشورهای همسایه افغانستان همچنان بر حفظ ثبات پول افغانی کمک کرده است [www.farsi.ru, 14.8.2007].

Ba nawešta-ye in rasâna, afzâyeš-e tejârat bâ kešwar hâ-ye hamsâya-ye afyânestân hamçenân bar xefz-e sabât-e pul-e afyâni komak karda ast.

'Ushbu OAVning habariga ko'ra, Afg'onistonga qo'shni davlatlar bilan savdo hajmining oshishi Afg'oniston valyutasi barqarorligini saqlashga yordam bergan'.

بر علاوه ، روسیه در حال حاضر سبسایدی متحدین خود را محدود میسازد [www.farsi.ru, 16.3.2007].

Bar elâwa, Rusiya dar hâl-e hazer sobsâydi-ye motahhed-in-e xôd râ mahdud mê sâzad.

'Bundan tashqari, Rossiya hozirda ittifoqdoshlarining subsidiyalarini cheklamoqda'.

sobsâydi 'subsidiya' termini yordam, nafaqa, qo'llab-quvvatlash degan ma'nolarni anglatadi [5, 383]. Dariy tiliga سبسایدی shaklida aynan shu ma'noda o'zlashgan.

اما مسئولان بانک مرکزی با رد این ادعا گفته اند که در سایر کشور ها پول نقد رایش نیست و بیشتر با کارت های بانکی داد و ستد می کند [www.farsi.ru, 21.11.2012].

Amâ mas'ulân-e bank-e markaziy bâ rad-de in eddaâ goftaand ke dar sâyer kešwar hâ pul-e naqd râyej nest wa bêštar bâ kârt hâ-ye bânki dâd-o-setad mêkonad.

‘Ammo markaziy bank rasmiylari bu da’voni rad etib, naqd pul boshqa mamlakatlarda yo’qligini va ular asosan bank kartalari bilan savdo qilishlarini aytishdi’.

Karta – lotincha **cart**, *charta* < yunoncha **kartis** degan ma’nolarda qo’llaniladi va papirus bargi, qog’oz ma’nolarini anglatuvchi so’zdir. Ichida magnitli axborotlar yozilgan va turli hisob-kitob uchun foydalaniladigan to’g’ri to’rtburchak shaklidagi guvohnoma, hujjat. Kredit kartasi [10, 324].

Dariy tilida کارت *kârt* ‘karta’ termini orqali aynan shu ma’no hosil qilinadi. در همین حال معاون بانک مرکزی افغانستان میگوید مردم می توانند بانکنوت فرسوده شده را جمع آوری کرده و به بانک مراجعه کنند و در بدل آن بانکنوت های جدید بگیرند [www.farsi.ru, 21.11.2012].

Dar hamin hâl mo’âwen-e bank-e markaziy-ye Afyânêstân mêguyêd mardom mê tawânand bânknot-e farsuda šoda râ jam’ âwari karda wa ba bânk morâje’a konand wa dar badal-e ân bânknot hâ-ye jaded begirad.

‘Ayni paytda Afg’oniston Markaziy banki o’rinbosarining aytishicha, odamlar eskirgan banknotlarni yig’ishtirib, bankka borib, uning o’rniga yangi pul olishlari mumkin’.

بانکنوت *bânknôt* ‘banknot’ [ingl. bank note – bank belgisi] Markaziy emissiya banklari chiqaradigan, muayyan moddiy qiymatga ega bo’lgan qog’oz pul [5, 51].

Tub terminlar, o’z navbatida, so’z yasash asosi sifatida yasama terminlar yasashiga asos bo’ladi.

Affiksatsiya aksariyat tillardagi kabi dariy tilida ham so’z yasashining eng boy va mahsuldor usuli hisoblanadi. Ma’lumki, bu usul asosga affiks qo’shish yo’li bilan so’z yasashidir va odatda, quyidagi formula bilan ifodalanadi: *so’z yasash asosi + so’z yasovchi (affiksal morfema)* [1, 17].

Yasama so’zning tarkibidagi so’z yasash asosi so’z yasashida muayyan bir ma’nosi bilan qatnashsa, so’z yasovchi umumiy ma’no bilan qatnashadi. Shu xususiyatlariga ko’ra, 1) har qanday yasama so’z tarkibida so’z yasash asosi vazifasida muayyan so’z qatnashsa, so’z yasovchi birdan ortiq so’zlar yasaydi; 2) so’z yasovchining ma’nosi so’z yasash asosining ma’nosi negizida voqelanadi; 3) muayyanlik, umumiylik xususiyatiga ega bo’lishidan qat’i nazar, har bir yasama so’z tarkibida so’z yasash asosi ham, so’z yasovchi ham bir ma’nosi bilan qatnashadi; 4) so’z yasash asosi vazifasida qo’llangan so’z, leksik birlik holatida, ko’p ma’noli bo’lishi mumkin [1, 18].

Materiallarimiz tahlili iqtisodiy terminlar yasashida -i (ی *yâ-ye nesbat*) suffiksining mahsuldorligini ko’rsatadi. Masalan, لیلām ‘auksion’; bundan لیلāmī [3, 623] termini asosida yasalmalar ham uchradi.

[<https://tolonews.com/fa>, 12.05.2023] رونق بازار فروش لباس‌های لیلای در شهر بامیان

Ravnaq-e bâzâr forôš-e lebâs hâ-ye lilâmi dar šahr-e bâmiyân.

‘Bomiyon shahrida arzonlashtirilgan kiyim-kechaklar bozorining rivojlanishi’.

دارا *dârâ* ‘... egasi’ + -i (ی *yâ-ye nesbat*) so‘z yasovchi asosiga qo‘shilib, undan mavhum ot yasaydi: دارایی *dârâi* ‘aktiv’ [3, 343].

So‘z yasallashining keyingi usuli – yarimaffiksasiya. Eron tilshunosligida mazkur usul affiksasiya va kompozitsiya oralig‘idagi so‘z yasash tipiga birlashtiriladi [6, 96]. Hozirgi dariy tili lug‘at tarkibining boyishida yarimaffikslar (ismiy va fe‘liy) orqali so‘z yasash yetakchi o‘rin tutadi. Yarimaffikslarning affikslardan farqi shundaki, ular o‘z ma‘nosini aniqroq saqlab qolgan bo‘ladi [1, 22]. Yarimaffikslar kam miqdorda ismiy yarimprefiks va yarimsuffiks hamda ko‘p miqdorda fe‘ldan kelib chiqqan yarimsuffikslardan iborat.

باج *bâj* ‘solliq’ – باجگیر *bâjgir* ‘solliqchi’,

رشوت *rešwat* ‘pora’ – رشوه‌گیر *rešwagir* ‘poraxo‘r’.

Misollar:

[www.farsi.ru, 28.12.2013] پولیس فاریاب باجگیر شناخته شد

Pulis-e Faryâb bâjgir šenâxta šod.

‘Politsiya Faryob solliqchi sifatida tan olingan’.

باجگیر *bâjgir* ‘solliqchi’ – solliq oluvchi, yig‘uvchi, to‘plovchi, boj undirish lavozimiga ega shaxs [10, 547].

Dariy tilida: باج *bâj* solliq + گیر *-gir* – solliqchi.

عبدالغفار داوی مسوول شرکت آیل گروپ و سهامدار پیشین کابل بانک در حدود یک ماه پیش از سوی مرکز عدلی و قضایی مبارزه با فساد داری بازداشت شد و اکنون در بازداشتگاه پل چرخ کابل به سر می‌برد [www.farsi.ru, 11.4.2017].

Abdulgaffâr Dâwi mas‘ul-e šerkat-e Âyl Grup wa sahmdâr-e pišin-e Kâbol bânk dar hodud-e yak mâh piš az suye markaz-e adli va qazâyi mobâreza bâ fesâddâri bâzdâšt šod wa aknun dar bâzdâštghâ-e Pol-e Ćarxi-ye Kâbol ba sar mêbard.

‘Oil Group rahbari va Kobul bankining sobiq aksiyadori Abdul G‘afar Daviy taxminan bir oy oldin Korrupsiyaga qarshi kurash sud va sud markazi tomonidan hibsga olingan va hozir Kobuldagi Charxiy ko‘prigidagi hibsonada saqlanadi’.

Yuqoridagi gapda سهامدار *sahmdâr* ‘aksiyador’ termini aksiyalar egasi, undan foyda ko‘ruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, aksiyadorlik jamiyati a‘zosi ma‘nosida qo‘llanilmoqda [10, 65].

Dariy tilida: سهم *sahm* – aksiya + دار *dâr* – aksiyador.

Misollarimiz tahlili hozirgi dariy tilida iqtisodiy terminlar yasallashida quyidagi yarimaffikslar ishtiroki aniqlandi: گذار *-gozâr*, کار *-kâr*, گیر *-gir*, دار *-dâr*. Bulardan *-dâr* fe‘liy yarimaffikslar sermahsul sanaladi: گیر *-gir* va دار *-dâr*

کمبرود *kârfarmâ* – ‘biznesmen’, کارفرما *sarmâyagozâr* – ‘investor’ سرمایه گذار *kambud* – ‘yetishmovchilik’, ‘defitsit’.

Tadqiqotlarda yarimaffikslar ikki turga: پسوند واره های فعلی *paswandwârahâ-ye fe’li* ‘fe’liy yarimaffikslar’ va پسوند واره های اسمی *paswandwârahâ-ye esmi* ‘ismiy yarimaffikslar’ga ajratiladi [1, 23]. Shuni aytish kerakki, tadqiqotlarda hozirgi kunda fors tilida ismiy yarimaffikslar fe’liy yarimaffikslarga nisbatan kamroq ekanligi ta’kidlanadi [4, 101].

Masalan, پیشپرداخت *pêš pardâxt* – ‘avans’, ‘oldindan to’lov’:

انتقاد رهبران جهادی از طرح صلح حکومت: به طالبان پیش پرداخت نداشته باشید [www.farsi.ru, 11.3.2018].

Enteqâl-e rahbarân-e jehâdi az tarh-e solh-e hokumat: ba tâlebân pêšpardâxt nadâsta bâsêd.

‘Jihod yetakchilarining hukumatning tinchlik rejasini tanqid qilishlari: Tolibonga avans to’lamang’.

پیش پرداخت *pêšpardâxt* ‘avans’ termini – korxonaning bajariladigan ish, o’tkaziladigan mol-mulk, ko’rsatilgan xizmatlar va boshqalar uchun to’lanadigan to’lovlar hisobiga beradigan yoki pul o’tkazish yo’li bilan amalga oshiriladigan dastlabki pul summasi yoki boshqa mulkiy qiymat [5, 35].

کشور هند در بخش زیربنا افغانستان را کمک خواهد کرد [www.farsi.ru, 4.2.2011].

Kešwar-e hend dar baxš-e zêrbânâ-ye afyânestân râ komak xâhad kard.

‘Hindiston Afg’onistonga infratuzilma sohasida yordam beradi’.

Dariy tili leksikasida tarkibida birdan ortiq lug’aviy ma’noli qism bo’lgan so’zni qo’shish yo’li bilan leksemalar hosil qilish o’ziga xos o’rinni egallaydi. Dariy tilshunosligida qo’shma so’zlar alohida tasnif qilinmasa-da, L.N. Kiseleva va R. Farhodiyning grammatik ocherklarida kompozitsiya hodisasining o’rni haqida umumiy ma’lumotga ega bo’lish mumkin [1, 29]. Iqtisodiy terminologiyada ham qo’shma terminlar alohida o’rin tutadi. Masalan: خرید و فروش *xarid-o-forôš* – ‘savdo-sotiq’, داد و ستد *dâd-o-setad* – ‘savdo hajmi’, دستمزد *dastmozd* ‘maosh’.

Dariy va fors tillarida qo’shma so’zlar determinativ va kopulyativ qo’shma so’zlarga ajratiladi [1, 26]. Determinativlar o’zbek tilidagi aniqllovchili qo’shma so’z va kopulyativlar juft va takroriy so’zlarga to’g’ri keladi. Qo’shma so’zlarga oid ishlarda qo’shma so’zlarning yasaliş modeli haqida gapiriladi va bunda, odatda, “qo’shma so’z”ning tarkibi qaysi turkumga oid so’zdan bo’lishi nazarda tutiladi [1, 32].

بدست آوردن دستمزد بلند، رقم بزرگی از کارگران پاکستانی را راهی این کشور نموده است

[www.farsi.ru/doc/641.html, 25.12.2005].

Badast âwardan-e dastmozd-e boland, raqam-e bozorgi az kârgarân-e pâkestâni râ râhi-ye in kešwar namuda ast.

‘Yuqori maosh olish ko‘p sonli pokistonlik ishchilarni bu mamlakatga jalb qilgan’.

دستمزد *dastmozd* ‘maosh’: “ot+ot” modeli: دستمزد *dastmozd* ‘choychaqa, qo‘l haqqi’, دست *dast* ‘qo‘l’, مزد *mozd* ‘ish haqi’.

Dariy tili iqtisodiy terminlarida kopulyativ qo‘shma terminlarning miqdor jihatidan ustunligi kuzatildi:

امضاء موافقتنامه خرید و فروش گاز بین ترکمنستان و افغانستان [www.farsi.ru, 23.8.2010]

Emzâ-ye mowâfaqatnâma -ye xarid-o-forôš-e gâz bayn-e Torkmanestân wa Afyânestân.

‘Turkmaniston va Afg‘oniston o‘rtasida gaz savdo-sotiq shartnomasi imzolandi’.

خریدن *xarid-o-forôš* ‘savdo-sotiq’: fe‘l + interfiks+fe‘l modeli (*xaridan* ‘sotib olmoq’ fe‘lining O‘ZN va فروختن *forôxtan* ‘sotmoq’ fe‘lining HZN).

والی کندز: تلاش دارند داد و ستد افغانستان با همسایه های شمالی متوقف شود [www.farsi.ru, 5.9.2016]

Wâli-ye Kondoz: talâš dârand dâd u setad-e Afyânestân bâ hamsâya hâ-ye šamâliy motawaqqof šawad.

‘Qunduz gubernatori: Ular Afg‘onistonning savdo hajmini shimoliy qo‘shnilar bilan to‘xtatishga harakat qilmoqda’.

داد و ستد *dâd-o-setad* ‘savdo hajmi’: fe‘l+fe‘l modeli (دادن *dâdan* ‘bermoq’ fe‘lining O‘ZN va ستدن *setadan* ‘olmoq’ fe‘lining O‘ZN, fe‘l+interfiks+fe‘l modelidagi yasalma).

Dariy tili lug‘atida ستادن *setadan* fe‘lining ستاندن *setândan* shaklida ishlatilishi, ya’ni uni HZN dan qayta yasalgan variant mavjud. داد و ستد *dâd-o-setad* ‘savdo hajmi’ yasalmasi L.N.Kiselevaning lug‘atda qayd etilmagan va hozirgi kunda داد و ستد yoki ستادن shaklida iste’molda qo‘llanadi.

XULOSA

1. Oxirgi yillarda iqtisodiyot tarmoqlarining rivoji natijasida dariy tilida iqtisodiy terminlar miqdori dariy tilining ichki imkoniyatlari va chet til unsurlari – o‘zlashmalar asosida rivojlanib va boyib bormoqda.

2. Dariy tili iqtisodiy terminlarining yasallishida yarimaffiksatiya usuli mahsuldor. Bunda fe‘liy yarimaffikslarning ismiy yarimaffikslardan dominantligi kuzatildi va ular orasida گیر *-gir* va دار *-dâr* yarimaffikslari sermahsul sanaladi.

3. Qo‘shma terminlar yasallishida kopulyativ qo‘shma so‘zlar miqdor jihatdan ko‘p kuzatildi. Bu terminlar interfiksli qo‘shma terminlar bo‘lib, ular fe‘l+interfiks+fe‘l (fe‘lning O‘ZN+O‘ZN va O‘ZN+HZN modellari) shaklidadir.

4. O‘zlashmalar, asosan, arab va g‘arbiy yevropa tillaridan qabul qilingan bo‘lib, jami 100 ta termindan 29 tasi arab, 21 tasi g‘arbiy yevropa tillaridan o‘zlashgani aniqlandi. Iqtisodiy terminlar tarkibida arab va forsha o‘zlashmalarning, asosan, an‘anaviy oldi-sotdi shakllarini ifodalashi, yevropa tillaridan o‘zlashmalar esa «moliya» tushunchasi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar turini modellashtirgani ma‘lum bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Алимova X.З. Дарий тили сўз ясаиши. Монография. – Т.: ТДШУ, 2019. – 232 б.
2. Alimova X. Fors va dariy tillari nazariyasi. – Т.: TDSHU, 2023. – 152 b.
3. Киселева Л.Н., Миколайчик В.И. Дари-русский словарь.– 2-е изд., стереотип., с Приложением новых слов. – М.: Русский язык, 1986. – 752 с.
4. Мирзахмедова Х. Форс тилида термин ясаишининг назарий ва эмпирик асослари. – Т., 2020. – 240 б.
5. Mustafakulov Sh.I. Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati. – Т., 2019. – 496b.
6. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1973. – С. 96.
7. Уралов Х.У. Техническая терминология современного языка дари и таджикского языка (сопоставительный анализ): Автореф. дис. ... канд.филол.наук. – М., 1974. – 28 с.
8. Уралов Х.У. Научно-техническая терминология современного языка дари. – Т.: Фан, 1990. – 102 с.
9. Хашимбеков Х. Актуальные вопросы терминологии языка дари (проблема усвоения заимствований): Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1967.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1 tom, . – В.324.
11. ح. عميد. فرهنگ فارسی. تهران. – ۱۳۸۹. ص ۱۰۴۲. ۱۰۸۸ ص.
12. <https://cyberleninka.ru/article>
13. <https://cheloveknauka.com/>
14. <https://www.tolonews.com/fa/afghanistan>
15. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Lizing>
16. www.farsi.ru